

Alisher Ergashev Anvarjonovich, Xalilov Jahongir Zoxidovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali

QORABAYIR OT ZOTINI SUT MAXSULDORLIGI

Annotation: The milk yield of the Karabair breed depends on hereditary, external and special factors. The amount of milk is low during the first lactation period, milk increases with an increase in lactation with high satiety and, respectively, leads to a decrease in quality indicators. At the end of the lactation period, the ability to milk the bibs again decreases, and the fat content increases accordingly.

Аннотации. Молочность карабаирской породы обусловлена их наследственными, внешними, а также частными факторами. Количество молока в начальный период лактации невысокая питательность, по мере роста лактации количество молока увеличивается и, соответственно, приводит к снижению показателей качества. По окончании лактации способность кобыл давать молоко снова снижается, соответственно увеличивается его жирность.

Kalit sozlar: qarabayir, sut, qimiz, laktatsiya, zot, yelin, sog'ish va qulun.

Kirish. Mamlakatimiz xalq xo'jaligini boshqa sohalari kabi yilqichilikni rivojlantirishda unda seleksiya-naslchilik ishlarini olib borilishini va mahsulot ishlab chiqarishini texnologik jarayonlarini yanada takomillashtirib samarali ilmiy yechimlarni ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb bo'lib va muxim ahamiyatni kasb etadi.

Otlardan maxsulot (go'sht-sut) ishlab chiqarish shuningdek sanoat uchun xomashyo yetishtirish, ulardan olingan terilarga ishlov berish va zamonaviy kiyim-kichik tayyorlashda foydalanish

Sut barcha tirik xayvonlarni shu jumladan biyalarni xam asosiy irsiy xususiyatlaridan biri bo'lib yangi tug'ilgan qulunlarni sog'lom va baquvvat qilib o'sishini ta'minlashda muxim o'rin tutadi. Bu maxsulot juda ko'p omillar asosida vujudga keladi va yuqori biologik xususiyatlar bilan ifodalanadi.

Sut biyalarni yelin bezlaridan neyro-gumoral ta'sirida xosil topadi va sut sisternasiga to'planib saqlanadi. Lekin biyalarni sut sisternasi juda kichik va tez to'lish xususiyati bilan xarakterlanadi. Shu boisdan ularni tez-tez sog'ish yoki qulunlarga emdirib turish maqsadga muvofiqdir.

Qorabayir zotini sutdorligi ularni irsiy, tashqi va shuningdek xususiy omillariga bog'liqdir. Ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida qayd etilganki o'rta yoshli biyalarni sut maxsuldorligi yosh va qarigan tengqurlaridan ancha ustun turgan.

Biyalarni yelini kichik va sutga juda tez to'ladi, shu bosidan tez-tez sog'ilib turilishini taqazo etadi va ishlab chiqarishga bunga juda katta etibor beriladi. Biyalardan sut olish maqsadida ularni qulunlaganiga (tug'gani) 30 kundan oshgandan so'ng boshlanadi bu davrda biyaning suti uning quluniga ichiriladi xolos.

Biya sut mahsuldorligini hisoblashning V.P.Dobrinin metodi (1937-39 yillari). Bilan biyalarning sut mahsuldorligini hisoblashda qulunlarni tortish metodini tavsiyasiga asosan olib

borildi. Bunda har ikki soatda qulunlarni emizishdan oldin va emizishdan keyin tortib, qoʻshilgan ogʻirlikni esa ichilgan sut deb qabul qilindi. Aniqlanishi boʻyicha tugʻilgandan soʻng ikki oylik boʻlguncha

1 kg semirishi uchun qulunga 10 litr ona suti sarf boʻladi, deb xulosa qilgan.

Biyalarning sut mahsuldorligini hisoblashning eng toʻgʻri usuli ularni har 2-3 soat nazorat sogʻimlar asosida sogʻish yoʻli bilan aniqlanadi. Nazorat sogʻim oʻtkazishda birinchi kuni yelinning bir pallasi sogʻilib, ikkinchi pallasi qulunga emiziladi. Ikkinchi kuni ikkinchi pallasi sogʻilib, birinchi pallasi emiziladi. Soʻngra ikkala palladan sogʻib olingan sut miqdori jamlanib, biyaning sutkalik sut mahsuldorligi aniqlanadi.

Ikkinchi nazotar sogʻim quyidagicha oʻtkaziladi, qulun biyadan ajratilib bogʻlanadi yoki maxsus panjara toʻsiq ichiga qamab qoʻyiladi.

Qulunning ajratilgan vaqti yozib qoʻyiladi va har 2-3 soatda (12 soat davomida 6 yoki 4 marta) sogʻib turiladi. Sogʻib olingan sutning jami miqdorini hisoblab uni 2 yoki 3 ga koʻpaytirilsa, biyaning sutkalik suti aniqlanadi

1-jadval

Naslli biyalar sersutligini baholash shkalasi (ballarda)

Katta yoshdagi biyalar, l	5 yoshgacha boʻlgan biyalar	4 yoshgacha boʻlgan biyalar	Ball
2500 va yuqori	2300 va yuqori	2100 va yuqori	10
2300-2499	2000-2229	1800-2099	9
2100-2299	1800-1999	1500-1799	8
1900-2099	1600-1799	1400-1499	7
1600-1899	1400-1599	1200-1399	6
1400-1599	1200-1399	1100-1199	5
1200-1399	1100-1199	1000-1099	4

Biyalardan sutkasiga sogʻib olingan sut miqdorini aniqlash uchun I.A.Sayginning quyidagi formulasidan foydalanish mumkin; unda qulunning kechasi emishi ham nazarda tutiladi

Biyalar tugʻganidan soʻng ikkinchi yidan boshlab bir kuniga 6 marta yoki har ikki soatda bir marotaba sogʻiladi. Biyalarni juda tez sogʻish zarur chunki ularni sut berish texnologik jarayonlarini kechish qobiliyati tezdir. Shunda biyalarni yelinadagi sutini sogʻib olishda ularni yelinini ikki palasini birdan sogʻish zarur. Bu ishlarni olib borishdan oldin sogʻiladigan biyalarni yelini turli iflosliklardan artib tozalanadi. Soʻng esa uqalanadi bu ishlarni meʼyoriy darajada olib borilishi ularni sutdorligiga ijobiy taʼsir etishi koʻp tadqiqot ishlarida oʻz aksini topgan.

Shu bilan birgalikda qayd etish zarurki biyalarni qoʻlda sogʻib olish juda ogʻir va mushkil ish boʻlib katta mahoratni talab etadi. Bu xususiyatlarni inobatga olib har bir sogʻuvchigiga 15-18 ta biya birlashtiriladi. Qoʻlda sogʻilish bilan bir qatorida biyalarni mashinada sogʻish xam taraqqiy etgan va yilqichilikda qoʻllaniladi. Bizning tadqiqot oʻtkazgan xoʻjaligimizda “Zayniddin Sharipov” nomidagi naslchilik fermer xoʻjaligida bunday biyalarni soni koʻp boʻlganligi sababli ular zaruriyat tugʻilgan davrda (xoʻjalik jixatidan) sogʻilib borilishi qoʻlda amalga oshiriladi. Bu ishlarni olib borilishi natijasiga va shuningdek adabiyotlar maʼlumotlariga (Svechin N.K, Bobilov I.F va Gopka V.M 1984) asoslanib qayd etamizki qorabayir biyalarini sutdorligi quyidagicha ifodalangan (2-jadval)

2-jadval

Qorabayir zoti biyalarini sutdorligi (kg).

Sog'im kunlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi	
	Bir kunlik	O'n kunlik	Bir kunlik	O'n kunlik
1	10,5	201	11,0	256
2	10,4	232	11,5	245
3	10,2	210	10,5	265
4	10,2	189	10,5	235
5	9,5	195	11,6	266
6	9,6	195	10,4	215
7	9,8	188	11,0	254
8	9,8	174	12,0	245
9	10,2	178	12,0	265
Jami	90,2	1762	100,5	2246

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki biyalarning tuqqanidan 3 oyligiga qadar sut mahsuldorligi yuqori bo'lgan. So'ngi oylarida esa biyalarda sut maxsuldorligi kamayib borishi kuzatiladi. Olingan natijalarning taxliliga ko'ra, biyalar laktatsiya davrining dastlabki 3 oyi baxor davriga to'g'ri kelib, shu davrlarda sut miqdori 966 kg ni tashkil etib yuqori bo'ldi yoki umumiy sog'ib olingan sutni 62,89 foizi aynan sog'ishning dastlabki oylariga to'g'ri keladi. Biz bu xosiyatni otlarning biologiyasi va oy fasli bilan baholangan deb xisoblaymiz.

Qorabayir otlarini kunlik va oylik sut miqdorini taxlili ko'rsatadiki bu natijalar M.K.Saxtaev (1970) va I.Boymurodovlarning (1972) ma'lumotlariga mos keladi.

Qorabayir zot otlarini kunlik, oylik va yillik sut miqdorini o'rganish bilan birgalikda adabiyot ma'lumotlariga asoslanib kimyoviy tarkibini xam taxlil qilib chiqdik.

Iqtisodiy samaradorligi. Barcha ishlarni amalda bajarilishi bevosita xarajat va olingan daromad bilan belgilanadi. Shunda daromad xarajatga nisbatan yuqori bo'lsa olib borilgan ish samaraliligidan dalolat beradi va aksincha xarajatlar daromadga nisbatan yuqori bo'lsa ziyon keltirganidan dalolat beradi. Shularni inobatga olgan xolda tadqiqotimizni kuzatuvini oxirida Zayniddin Sharipov fermer xo'jaligida urchitib kelinayotgan qorabayir otlarini xo'jalikda daromad yoki ziyon keltirishini aniqlashga yondoshdik. Bunda barcha ma'lumotlar 18-jadvalda bayon etilgan.

3-jadval

Qorabayir otlarni iqtisodiy samaradorligi.

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
	sut	sut
1 bosh otdan olingan maxsulot	1762,0	2246,0
Ishlab chiqarish maxsulotining tannarxi	805850	859650
Maxsulotni sotishdan olingan yalpi daromad	1002250	1172250
Olingan sof foyda	262600	312600
Rentabellik daraja	24,6	36,6

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, tirik vazn qatorida otlardan go’sht ishlab chiqarilishini samaradorligini xam taxlil etildi va etamizki go’sht ishlab chiqarilishiga 287500 so‘m sarf etilgan uni sotishdan esa xo‘jalik 139250 so‘m sof foyda ko‘rgan yoki uning rentabellik darajasi 48,52 foizni tashkil etgan .

Otlardan sut yetishtirishda xam xo‘jalik deyarli darajada foyda ko‘rgan (312 600 so‘m) va uning rentabellik 36,36 foizni tashkil etgan.

Bu uchala maxsulotni taxliliga asoslanib qayd etamizki xo‘jalikda qorabayir otlarni o‘stirib sotish go’shtga so‘yib sotish va sut ishlab chiqarish ancha daromad keltirgan va xo‘jalik rentabelligini kuchaytirgan.

Xulosa. Qorabayir biyalari yuksak sut maxsuldorlik xususiyatlari bilan ifodalaniladi va unga yil fasli, otlarni yoshi sog‘im davri va sog‘im oyi o‘z ta’sirini o‘tkazganganlariga ulardan o‘rta xisobda 1563 litr sut olish imkoni mavjud.

Qorabayir otlaridan barcha toifadagi xo‘jaliklarda samarali foydalanish evaziga sifatli oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarishni yanada oshirish mumkin.

O‘zbekistonning barcha iqlim sharoitiga yaxshi moslashganligi sababli ularni urchitish va maxsulot ishlab chiqarish toylarni parvarishlashga 40,66, go’sht yetishtirishga 48,52 va sut ishlab chiqarishda 36,36 foiz samaradorlikka erishish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Toshkent sh., 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3057-son qarori. Toshkent. 2017 yil 15 iyun. www.lex.uz
3. Amin M. Karabairskaya paroda loshadey. //Zooveterinariya. 2008 y. №3. 38 b.

4. Andreev N.P., Alekseev A.D., Berezkin M.V. K voprosu izucheniya rosta i razvitiya molodnyaka yakutskix loshadey. “Texnologiya proizvodstva produkcii jivotnovodstva”. Yakutsk, 1979, S. 80-82.
5. Andreev N.P., Drugin P.S. Myasnaya produktivnost yakutskix loshadey. Yakutsk, 1970, s. 96.